

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2024- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajm 5 409,2 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,6 %, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 5 082,8 mlrd. so‘mni (103,6 %), o‘rmonchilik xo‘jaliklari 276,9 mlrd. so‘mni (103,4 %), baliqchilik xo‘jaliklarida 49,4 mlrd. so‘mni (109,5 %) tashkil qildi.

Xususan, yuqori o‘sish sur‘atlari Yangiyo‘l sh. (131,0 %), Ohangaron sh. (112,4 %) va Chinoz (105,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Angren shahar (100,2 %), Zangiota tuman (100,8 %) va Nurafshon (101,0 %) shaharlarida nisbatan past o‘sish sur‘atlari bilan yakunlandi.


**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan
(ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda hududlarning ulushi**

| | 2024- yil yanvar-mart, mlrd. so‘m * | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Umumiy hajmda hududlarning ulushi, %da |
|--------------------------|---|--|--|
| Toshkent viloyati | 5 409,2 | 103,6 | 100,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Nurafshon | 9,4 | 101,0 | 0,2 |
| Olmaliq | 19,4 | 105,1 | 0,4 |
| Angren | 63,3 | 100,2 | 1,2 |
| Bekobod | 48,5 | 102,4 | 0,9 |
| Ohangaron | 13,9 | 112,4 | 0,3 |
| Chirchiq | 39,0 | 101,6 | 0,7 |
| Yangiyo‘l | 7,9 | 131,0 | 0,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 305,6 | 102,3 | 5,7 |
| Ohangaron | 275,6 | 103,7 | 5,1 |
| Bekobod | 377,5 | 103,5 | 7,0 |
| Bo‘stonliq | 381,5 | 104,5 | 7,1 |
| Bo‘ka | 317,4 | 104,0 | 5,9 |
| Quyichirchiq | 262,4 | 104,5 | 4,9 |
| Zangiota | 453,8 | 100,8 | 8,5 |
| Yuqori Chirchiq | 310,4 | 103,5 | 5,8 |
| Qibray | 386,0 | 103,8 | 7,2 |
| Parkent | 285,0 | 102,4 | 5,3 |
| Piskent | 282,1 | 102,2 | 5,3 |
| O‘rta Chirchiq | 437,3 | 104,9 | 8,2 |
| Chinoz | 361,5 | 105,7 | 6,7 |
| Yangiyo‘l | 439,2 | 103,8 | 8,2 |
| Toshkent | 284,9 | 105,0 | 5,3 |

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi

| | <i>2024- yil yanvar-mart, mlrd. so‘m</i> | <i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</i> | <i>Umumiy hajmda kichik biznes ulushi, %da</i> |
|--------------------------|--|---|--|
| Toshkent viloyati | 4 973,3 | 102,1 | 91,9 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Nurafshon | 9,4 | 100,9 | 99,9 |
| Olmaliq | 19,3 | 104,9 | 99,4 |
| Angren | 48,3 | 106,9 | 76,2 |
| Bekobod | 48,5 | 102,4 | 99,9 |
| Ohangaron | 13,8 | 114,8 | 99,9 |
| Chirchiq | 38,9 | 101,6 | 99,8 |
| Yangiyo‘l | 7,7 | 129,9 | 97,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 304,3 | 102,2 | 99,6 |
| Ohangaron | 241,9 | 99,9 | 87,8 |
| Bekobod | 375,0 | 103,4 | 99,3 |
| Bo‘stonliq | 374,7 | 104,6 | 98,2 |
| Bo‘ka | 315,5 | 103,8 | 99,4 |
| Quyichirchiq | 252,9 | 108,8 | 96,4 |
| Zangiota | 440,0 | 100,5 | 96,9 |
| Yuqorichirchiq | 294,3 | 103,0 | 94,8 |
| Qibray | 358,3 | 97,8 | 92,8 |
| Parkent | 276,8 | 100,4 | 97,1 |
| Piskent | 199 905,6 | 110,5 | 70,9 |
| O‘rtachirchiq | 367 026,9 | 104,9 | 83,9 |
| Chinoz | 357 833,4 | 106,0 | 99,0 |
| Yangiyo‘l | 300 610,0 | 85,9 | 68,4 |
| Toshkent | 281 043,2 | 104,5 | 98,6 |


2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) hajm,
mlrd. so'mda



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning eng katta hajmi Zangiota tumanida – 453,8 mlrd. so'm, Yangiyo'l tumanida – 439,2 mlrd. so'm, O'rta Chirchiq tumanida – 437,3 mlrd. so'm kuzatildi.


Eng kam hajmi Yangiyo'l (7,9 mlrd. so'm), Nurafshon (9,4 mlrd. so'm) va Ohangaron (13,9 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar (xizmatlar)
umumiy hajmida hududlarning ulushi**



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiy hajmida Zangiota tumanining ulushi 8,5 %ni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Yangiyo‘l, (8,2 %) O‘rta chirchiq (8,1 %) va Qibray (7,2 %) tumanlari keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Yangiyo‘l (0,1 %), Nurafshon (0,2 %) va Ohangaron (0,3 %) shaharlarida qayd etildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining
xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o'sishi 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 103,1 %ni hamda chorvachilik mahsulotlari 103,6 %ni tashkil qildi.

Dehqonchilik. 2024- yil yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 13 164,0 tonna sabzavot (2023- yilning shu davriga nisbatan 100,4 %) yig'ib olindi.

Bundan tashqari, barcha toifadagi xo'jaliklarda 80,0 tonna kartoshka qazib olindi, 191 tonna meva va rezavorlar yetishtirildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida
asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sabzavot ekinlarining yuqori ko'rsatkichlari Zangiota (2 908,8 tonna), Toshkent (2 834,3 tonna) va Chinoz (2 231,3 tonna) tumanlarida tashkil etgan bo'lib, past ko'rsatkichlar Bo'stonliq tuman (0,7 tonna), Ohangaron (1,9 tonna) va Chirchiq (2,6 tonna) shaharlariga to'g'ri keldi.

Yetishtirilgan kartoshka qazib olish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlari Angren (66,5 tonna), Chirchiq (13,5 tonna) shaharlariga to'g'ri keldi.

Chorvachilik. 2024- yilning 1- aprel holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 103,9 %ga (jami 968 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,7 %ga (396 ming bosh), qo'y va echkilar 102,2 %ga (1 051 ming bosh), otlar 99,3%ga (54 ming bosh), parrandalar 111,5 %ga (16 mln. boshga) ko'paydi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 83,4 %ni, sut ishlab chiqarishda 94,4 %ni, tuxum ishlab chiqarishda 54,2 %ni tashkil etdi.

**2024- yil 1- aprel holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**



Eng ko'p qo'y va echkilar Ohangaron (254 467 bosh), Bo'stonliq (167 266 bosh) va Parkent (109 737 bosh) tumanlarida bo'lsa, aksincha past ko'rsatkichlar Yangiyo'l (931 bosh), Ohangaron (2 596 bosh) va Nurafshon (2 848 bosh) shaharlariga to'g'ri keldi.




Parrandalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Zangiota (2 592 ming bosh), Qibray (2 314 ming bosh) va Bo'stonliq (1 999 ming bosh) tumanlarida bo'lsa, aksincha past ko'rsatkich Yangiyo'l (10 ming bosh), Nurafshon (16 ming bosh) va Olmaliq (18 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

2024- yil 1- aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

| | Ming bosh | O'sish sur'ati, %da |
|--|--------------|------------------------|
| Yirik shoxli qoramol | 968 | 103,9 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo'jaliklari | 82 | 107,9 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 837 | 102,1 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 49 | 134,1 |
| Ulardan sigirlar | 396 | 102,7 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo'jaliklari | 24 | 105,8 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 358 | 101,5 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 14 | 135,0 |
| Qo'y va echkilar | 1 051 | 102,2 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo'jaliklari | 309 | 100,6 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 674 | 102,3 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 68 | 109,5 |
| Otlar | 54 | 99,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |

| | Ming bosh | O'sish sur'ati, %da |
|--|---------------|------------------------|
| fermer xo'jaliklari | 10 | 107,9 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 41 | 95,7 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3 | 132,2 |
| Parrandalar | 16 648 | 111,5 |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo'jaliklari | 202 | 269,1 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 9 341 | 101,3 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 7 105 | 126,1 |

**Chorva mollari va parrandalar bosh sonida
xo'jaliklar toifalarining ulushi**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 86,4 %ni, fermer xo‘jaliklarida esa 8,4 %ni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 90,1 %ni va 6,1 %ni, qo‘y va echkilar 64,1 %ni va 29,4 %ni, otlar 76,4 %ni va 17,9 %ni, parrandalar 56,1 %ni va 1,2 %ni tashkil etdi.

2024- yil 1- yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 73,8 ming tonna go‘sht (2023- yilning mos davriga nisbatan 3,4 %ga ko‘p), 169,0 ming tonna sut (3,6 %ga ko‘p), 250,0 mln. dona tuxum (8,6 %ga ko‘p) ishlab chiqarilgan.




Yirik shoxli qoramollar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Bo'stonliq (91 ming bosh), Bekobod (83 ming bosh) va Bo'ka (80 ming bosh) tumanlarida, aksincha past ko'rsatkich Chirchiq (1,7 ming bosh), Yangiyo'l (1,9 ming bosh) va Nurafshon (3,7 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

Shu jumladan, sigirlar eng yuqori ko'rsatkich Bo'ka (43,7 ming bosh), Bekobod (34,1 ming bosh) va Chinoz (33,1 ming bosh) tumanlariga, aksincha past ko'rsatkich Chirchiq (0,8 ming bosh), Yangiyo'l (0,9 ming bosh) va Ohangaron (1,2 ming bosh) shaharlariga to'g'ri keldi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan
chorvachilik mahsulotlari**


| | <i>miqdori</i> | <i>o'sish sur'ati, %da</i> |
|--|----------------|--------------------------------|
| Go'sht (tirik vaznda), ming t. | 73,8 | 103,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo'jaliklari | 0,8 | 112,2 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 60,7 | 100,7 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 12,3 | 118,5 |
| Sut, ming t. | 169,0 | 103,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo'jaliklari | 10,3 | 124,1 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 149,2 | 100,8 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 9,5 | 139,3 |
| Tuxum, mln. dona | 250,0 | 108,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| fermer xo'jaliklari | 0,3 | 103,2 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 135,3 | 100,7 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 114,4 | 119,6 |

2024- yil yanvar-mart oylarda Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi
(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan % hisobida)




2024- yil yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xo'jaliklar kesimida tahlil qilinganda, go'sht ishlab chiqarish fermer xo'jaligida (1,2 %) dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari (16,6 %) qishloq xo'jaligi, (82,2 %) sut ishlab chiqarish fermer xo'jaligida (6,0 %) dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari (5,6 %), qishloq xo'jaligi (88,4 %), tuxum ishlab chiqarish fermer xo'jaligida (0,1 %) dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari (45,8 %), qishloq xo'jaligi (54,1 %) keladi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



2024- yil yanvar-mart oylarida go'sht ishlab chiqarish hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p ishlab chiqargan hududlar Yangiyo'l (7,0 ming tonna), O'rta chirchiq (6,8 ming tonna) va Zangiota (5,8 ming tonna) tumanlari bo'lsa, Yangiyo'l (0,1 ming tonna), Nurafshon (0,2 ming tonna) va Ohangaron (0,3 ming tonna) shaharlarida esa kam ishlab chiqarilgan.

Bo'stonliq (19,7 ming tonna), Yuqori Chirchiq (14,5 ming tonna) va Bekobod (14,4 ming tonna) tumanlari sut ishlab chiqarish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlardan o'rin olgan bo'lsa, aksincha Bo'ka (4,0 ming tonna), Toshkent (6,7 ming tonna) va Oqqo'rg'on (8,6 ming tonna) tumanlar sut ishlab chiqarish bo'yicha past ko'rsatkichlardan o'rin egalladi.



Viloyatda tuxum ishlab chiqarish bo'yicha 2024- yil yanvar- mart oylarida eng yuqori ko'rsatkich Qibray (38,9 mln. dona), Zangiota (36,8 mln.dona) va O'rta chirchiq (24,3 mln. dona) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, past ko'rsatkich Yangiyo'l, Bekobod (0,1 mln. dona), Olmaliq (0,4 mln. dona) va Nurafshon (0,6 mln. dona) shaharlarida kuzatildi.

Fermer xo‘jaliklari. 2024- yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 290,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 5,8 %ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari

| | <i>yanvar-mart</i> | | | | <i>2023-yanvar-martga nisbatan % hisobida</i> |
|----------------------|--------------------|--|------------------|--|---|
| | <i>2023- yil</i> | | <i>2024- yil</i> | | |
| | <i>tonna</i> | <i>ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %</i> | <i>tonna</i> | <i>ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %</i> | |
| Kartoshka | - | - | - | - | - |
| Sabzavot | 833 | 6,4 | 573 | 4,4 | 68,8 |
| Go‘sht, tirik vaznda | 732 | 1,0 | 821 | 1,1 | 112,2 |
| Sut | 8 305 | 5,1 | 10 310 | 6,1 | 124,1 |
| Tuxum, mln. dona | 281 | 0,1 | 290 | 0,1 | 103,2 |

2024- yilning 1- aprel holatiga fermer xo‘jaliklarida 81 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 24 ming bosh sigir, 309 ming bosh qo‘y va echkilar, 9 799 bosh ot, 202 ming bosh parrandalar mavjud.